



O‘ZBEK JADID DRAMATURGIYASI TADQIQI, TURK TILIDAGI ILMIY TADQIQOTLAR MISOLIDA

Oyqiz Rajabova

O‘zbekiston milliy universiteti magistranti

E-mail: oyqizrajabova436@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek jadid dramaturgiyasining turk tilidagi ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilishi va talqin qilinishi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda jadid dramaturgiyasining Turkiston ijtimoiy-madaniy hayotidagi o‘rni, uning xalq ma‘naviyatini yuksaltirish va milliy uyg‘onish g‘oyalari shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, jadid dramaturgiyasida ilgari surilgan ma‘rifatparvarlik, ijtimoiy islohot, ilm-fan va tarbiya, jaholat hamda mustamlakachilikka qarshi kurash kabi g‘oyalarning badiiy ifodasi ochib berilgan. Maqolada turk ilmiy muhitida olib borilgan tadqiqotlar asosida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lpon dramaturgiyasi tahlil qilinadi. Xususan, Timur Kojaog‘lu, Hamza O‘zturkchi, Chag‘dash Kecheji va Derlihan Bora kabi turk olimlarining ilmiy qarashlari hamda metodologik yondashuvlari jadid dramaturgiyasini o‘rganish nuqtayi nazaridan baholangan. Ularning tadqiqotlarida jadid dramalari Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy tafakkuri, milliy o‘zlikni anglash jarayoni va modern adabiy tafakkurning muhim manbalaridan biri sifatida talqin etilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: jadid dramaturgiyasi, turk ilmiy muhiti, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, milliy uyg‘onish, ma‘rifatparvarlik, modern adabiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются вопросы изучения и интерпретации узбекской джадидской драматургии в турецкоязычных научных исследованиях. В исследовании освещается роль джадидской драматургии в социально-культурной жизни Туркестана, её значение в духовном просвещении народа и формировании идей национального пробуждения. Также раскрывается художественное выражение таких идей, как просветительство, социальные реформы, наука и образование, борьба против невежества и колониализма, выдвинутых в джадидской драматургии. В статье на основе исследований, проведённых в турецкой научной среде, анализируется драматургия Махмудходжи Бехбуди, Абдурауфа Фитрата и Абдулхамид Чулпана. В частности, рассматриваются научные взгляды и методологические подходы турецких учёных Тимура Коджаоглу, Хамзы Озтюркчи, Чагдаша Кечеджи и Дерлихан Бора в изучении джадидской драматургии. В их исследованиях джадидские драмы интерпретируются как один из важнейших источников общественно-политической мысли народов Туркестана, процесса национального самосознания и модернистского литературного мышления.

Ключевые слова: джадидская драматургия, турецкая научная среда, Махмудходжа Бехбуди, Абдурауф Фитрат, Абдулхамид Чулпан, национальное пробуждение, просветительство, модернистское литературное мышление.

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the study and interpretation of Uzbek Jadid dramaturgy in Turkish-language scholarly research. The study



highlights the role of Jadid dramaturgy in the socio-cultural life of Turkestan, as well as its importance in promoting public spirituality and shaping the ideas of national awakening. It also reveals the artistic expression of such ideas as enlightenment, social reform, science and education, and the struggle against ignorance and colonialism reflected in Jadid dramaturgy. The article analyzes the dramaturgy of Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, and Abdulhamid Cholpon on the basis of studies conducted in the Turkish academic environment. In particular, it examines the scholarly views and methodological approaches of Turkish researchers such as Timur Kojaoğlu, Hamza Öztürkçi, Çağdaş Keçeci, and Derlihan Bora in the study of Jadid dramaturgy. Their studies interpret Jadid dramas as one of the important sources of the socio-political thought of the peoples of Turkestan, the process of national self-awareness, and modern literary thinking.

Key words: *jadid dramaturgy, Turkish scholarly environment, Mahmudkhoja Behbudi, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon, national awakening, enlightenment, modern literary thought.*

KIRISH

O‘zbek jadid dramaturgiyasi nafaqat o‘z davrining, balki o‘zidan keyingi davr fojea va hodisalarini jamlagan adabiy hodisadir. Uning vujudga kelganiga qariyb bir asrdan oshgan bo‘lsa-da, ularda ko‘tarilgan muammo va dolzarb masalalar hali-hanuz xalq hayotida davom etmoqda. Shu tufayli ham mazkur adabiy turni tadqiq qilish va undagi yangi ma‘no qatlamlarini o‘rganish bugungi kun adabiyotshunos olimlari uchun ham alohida vazifa bo‘lib xizmat qilmoqda. Jadid dramaturgiyasi Turkistondagi ilk xalq bilan muloqot shakli bo‘lgani holda, ijtimoiy hayotning eng og‘riqli mavzularini o‘z ichiga qamrab olgan, inson botini va zohirini taraqqiy ettirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygandi. Shu nuqtayi nazardan, uni dunyo bo‘ylab, xususan, turk ilmiy muhitida tadqiq etish boshlangan. Jadid dramaturgiyasining asl mohiyatini anglash va uning ma‘no qatini tadqiq qilish uchun turk olimlari jadid dramaturgiyasining ustunlaridan Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Hoji Muin kabi ijodkorlarning ijod namunlariga murojaat qilishgan. Ularning dramalarini o‘rganish mobaynida yangi ma‘no va mazmunlarni ochishgan. Asarlarning tub mohiyatini badiiy tahlil ostiga olgan holda bir paytning o‘zida davr muammolariga ham bog‘lab siyosiy jihatdan ham tahlil qilishgan. Qahramonlar shaxsiyatiga to‘xtalib, asardagi vazifasini ham tadqiqot ostiga olishgan. Jadid dramaturgiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan Timur Kojaog‘lu, Hamza O‘zturkchi, Chag‘dash Kecheji, Derlihan Bora kabi turk olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarida ushbu adabiy turning o‘ziga xos talqinlari berilgan [4].

O‘zbek jadid dramaturgiyasining ilk namunasi hisoblangan Behbudiyning “Padarkush” dramasi XX asr boshlaridagi Turkiston xalqi ijtimoiy va ma‘naviy hayotini qamragan ijod namunasi edi. O‘z davrining ilmsizlik va qoloqlik kabi illatlarini olib chiqqan ushbu asar nafaqat o‘zbek adabiyotshunosligining, balki turk



adabiyotshunosligida ham muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Shu jihatdan turk olimi Timur Kojaog‘luning “Turkistanda turkche ilk tiyatro eseri: Mahmud Hoja Behbudinin “Pederkush (Baba Katili) piyesi – 1913 nomli ilmiy risolasi 2004-yilda chop etilgan bo‘lib, u olimning ustozlari Edvard Alvordning 84 yoshiga armug‘on sifatida yozilgan. Olim ta‘biri bilan aytganda, Mahmudxo‘ja ijodini dunyoga tanitgan olim bu Edvard Alvorddir [5]. Aynan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi va uning asl mohiyatini butun olamga namoyon qilgan. Behbudiy faoliyatiga to‘xtalar ekan, Ismoil G‘aspirali jadidchilik harakatining Turkistondagi ilk namoyondasi sifatida e‘tirof etadi. Behbudiyning faoliyatining eng muhim qirralari sifatida publitsistika va dramaturgiyani ko‘rsatadi. “Samarqand” gazetasi va “Oyna” nomli adabiyot jurnallarini chiqarganligi haqida ma‘lumot beradi.

Darhaqiqat, Behbudiy faoliyatida publitsistika va dramaturgiya alohida hamiyat kasb etadi. Har ikki faoliyat turi xalq bilan muloqot qilishning o‘ziga xos shaklidir. Behbudiyning “Teatr nadir” maqolasiga to‘xtalib aynan mazkur maqola uning dramaturgiyaga oid qarashlarini anglash uchun nihoyatda muhim ekanligini Behbudiy maqolasidagi parcha orqali ifoda etadi. Behbudiyning teatr uchun bildirgan fikrlari olim nuqtayi nazariga ko‘ra Turkistondagi jadidchilik harakatining ijtimoiy loyihasi va falasafasi bilan uzviy bog‘liqdir. Behbudiy va undan so‘ng dramaturgik asarlar yaratgan ijodkorlar uchun teatr jamiyatni yuksaltiruvchi maktab sifatida ko‘rganlarini ta‘kidlar ekan, yangilanish vakillari ilk o‘laroq matbuot, maktab va teatr sohasiga e‘tibor qaratganlarini e‘tirof etadi. Turkistondagi teatr vujudga kelish tarixida masxaraboz, qiziqchi va askiyachi kabi ijod ahlarning muhim ahamiyat kasb etganini keltirib o‘tadi. O‘zbekistonda adabiyot tarixi bo‘yicha tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar topilmasi sanalgan Abdurauf Samad Shohidiyning “Mahramlar” nomli pyesasi garchi “Padarkush” dan oldin teatr sahnasiga qo‘yilgan bo‘lsa-da, xalq e‘tiboriga tushmagani va sahnalashtirilmagani uchun teatr taraqqiyotida o‘rin egallamaganini ta‘kidlaydi. Fitratning “Munozara” pyesasi zamonaviy pyesa sifatida emas, balki O‘rta Osiyodagi Chig‘atoy va Anadoludagi Devon adabiyotidagi munozara shaklida yozilganini, asar ikki kishi suhbat ustiga qurilganini dramada harakat unsurida ko‘zga tashlanmasligini, Fitratning XX asr 20-yillaridan so‘ng yozilgan dramalari zamonaviy dramaturgiya talablariga javob berishi bilan bir qatorda porloq asarlar ekanligi ta‘kidlangan.

Turkistonda “Padarkush” dramasi sahnaga qo‘yilishidan oldin rus, tatar, ozarbayjonlik dramaturglarning asarlari sayyor teatr ko‘rinishida turli joylarda tomoshalar qo‘yganini keltirib o‘tadi. Turkistonda dramaturgiya vujudga kelishida ozarbayjonlik Mirza Fathali Oxundzoda va Usmoniylar imperiyasidagi Shinasi,



Namik Kemal, Abdulhak Hamid kabi ijodkorlarning asarlari muhim ahamiyat kasb etganini ta'kidlaydi. "Padarkush" dramasi ilk bor 1914-yil 15-yanvarda xalq e'tiboriga havola etilgani, o'sha kuni tatarcha "Aldadik va aldandik" nomli dramasi ketma-ket qo'yilgani haqida ma'lumot berilar ekan, tatarcha drama kimga tegishli ekanligi haqida O'zbekistonda birorta ma'lumot berilmaganini ta'kidlaydi. Timur Kojaog'lu ushbu tadqiqot ishida 28 ta jadid dramasi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, drama 3 parda, bir manzarali, 35-40 daqiqada ijro etilgan sahna asariligini Edvard Oldvordning fikrlari orqali asoslaydi. Dramada 11 kishi ijro etsada, ulardan 7 kishi sahna ichida nutqi va ijrosi kamligini aytib o'tadi. Behbudiy rus politsiya komissari – Pristufni asarga bejizga olib kirmaganini, agar farzandlarni vaqtida ilmga yo'naltirilmasa, kun kelib ular rus bosqinchilari tomonidan qamoqqa olinishi va Sibirga surgun qilinishi haqida ogohlantirganini keltirib o'tadi. Asar oddiy xarakterga ega bo'lmasdan ayni paytda allegorik asar ekanini, qahramonlar ismi ham bejizga tanlanmaganini har biri alohida ma'no tashishini keltirib o'tadi. Unga ko'ra, boy salbiy qahramon bo'lib johillik va ilmsizlikni, domla va ziyoli ijobiy qahramonlar bo'lgani holda ilmn va ma'rifatni ko'rsatuvchi obrazlardir. bundan tashqari, Toshmurod – maqsadi tosh bo'lgan qahramon bo'lgani holda, boyning qotili Tangriqul nomi bilan esa boyni jazolovchi obraz ekanini keltiradi, bu fikrlarda asos bor. Chunki mazkur asar mazmun va mohiyat jihatidan nihoyatda kuchli xarakterga ega va har bir ijrochining vazifasi bor, shunga ko'ra har birining ismida alohida mazmun va mohiyat mavjud. Tangriqul oddiy qahramon emas, balki ilohiy adolatni ko'rsatib turishini ta'kidlaydi. Chunki boy Tangriqul orqali o'ldiriladi. Davlat – o'rganish va o'rgatishdan mahrum mustaqillikning boyligini, Liza – ko'ngilxushlikka berilganlarning, mayxonachi Artun esa jamiyatni yomon yo'lga chorlovchi vosita ekanligini keltiradi. Asar qahramonlarini to'rt guruhga bo'ladi, unga ko'ra boy – haqiqiy aybdor, Toshmurod, Nor, Davlat va Tangriqul otalari tomonidan ta'limdan yiroq tutilgan bechora qurbonlar, ular ayni paytda gunohkor emas, balki haqsizlikka duchor bo'lgan qahramonlar, Artun, Liza, Pristuf faqat vosita bo'lib, ularga ergashganlarni faqat yo'qlikka mahkum etishini, ularga qarshi Domla va Ziyoli jamiyatni to'g'ri yo'lga chorlovchi muvozanat unsurlari ekanini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, mazkur davrda jamiyatda ushbu 4 guruh mavjud bo'lgan har birining vazifasi va maqsadlari turlicha insonlar edi. Timur Kojaog'luning mazkur ilmiy ishida jadid dramaturgiyasining ilk namunasi har tomolama tadqiq qilingan. Asar mohiyati ochib berilgan, har bir qahramon va unga yuklangan vazifalar keltirib o'tilgan.

Shu bilan birga jadid dramaturgiyasini eng go'zal namunalaridan sanalagan "Yorqinoy" dramasi haqida turk ilmiy muhitida Hamza O'zturkchi o'rgangan.



Tadqiqotchi tomonidan 2019-yilda himoya qilingan magistrlik dissertatsiyasida “Yorqinoy” dramasi mazmuni va mohiyati yetarli darajada ochib berilgan. Uning Cho‘lpon ijodi bo‘yicha “Cholpanin Yarkinay adli piyes” nomli kitobi chop etilgan. Hamza Ozturkchi “Yorqinoy” dramasi tadqiq qilish bilan bir qatorda asarni tarjima qilgan, shuningdek asarda qo‘llangan so‘zlar lug‘atini ham tuzgan. Tadqiqot ishining asl maqsadi Abdulhamid Cho‘lpon ijodini tanitishni va “Yorqinoy” pyesasini tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur kitob kirish qismi, to‘rt bob va ilovani o‘zida jamlagan. Birinchi bobda o‘zbek jadid dramasi haqida umumiy ma‘lumotlar keltiriladi. Ikkinchi bobda Cho‘lponning hayoti va ijodi, teatrlarining faoliyati va Turkiya va O‘zbekistonda uning ijodi bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar muhokama qilingan. Uchinchi bobda “Yorqinoy” dramasi haqida ma‘lumotlar berish bilan bir qatorda asarning asosiy elementlari, hikoya qilish texnikasi va uning mazmuni xususiyatlari qayd etilgan. To‘rtinchi bobda esa “Yorqinoy” dramasi o‘zbekcha transkripsiyasi va turk tilidagi tarjimasini keltiriladi. Asar mohiyatini teranroq anglash uchun esa so‘zlar lug‘ati ham qo‘llanilgan. Ushbu ilmiy asarda jadid dramalaridan biri sanalgan “Yorqinoy” dramasi mazmuni ochib berilgan va ayni paytda ushbu ish o‘zbek va xorij cho‘lponshunosligi uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Derlihan Bora turk ilmiy muhitida Hoji Muin dramalarini tadqiq qilgan. Olimning “O‘zbek jadid edebiyatida Hoji Muin va tiyatro asarlari nomli magistrlik dissertatsiyasi 288 sahifadan iborat bo‘lib, kirish qismi 3 bo‘limdan iborat. Mazkur ishning kirish qismida umumiy jadidchilik harakati, maorif va adabiyoti, ilk o‘zbek dorulfununi haqida umumiy mulohazalar keltirilgan. Birinchi bo‘limda Hoji Muinning hayoti va ijodi tahlil ostiga olingan. Shuningdek Hoji Muin masalalari tavsiflanadi. Ikkinchi bo‘limda Hoji Muinning “Mazluma xotin”, “Ko‘knori”, “Yangi maktab eski maktab”, “To‘y” nomli dramatik asarlari tadqiq va tahlil qilingan. Uchinchi bobda esa asarlarning o‘zbekcha asl nusxasi va turkcha tarjima variantlari berilgan. va unda tadqiqotchi Derlihan Bora Hoji Muin Shukrulloh dramaturgiyasini tahlil qilgan ekan, jadidlar teatrni xalq ongiga ta’sir ko‘rsatishning eng muhim vositalaridan biri sifatida baholaganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, jadid ma’rifatparvarlari teatrning ham ko‘rish, ham eshitishga asoslangan san’at turi ekanligidan unumli foydalangan holda, xalqni ma’rifatga, ijtimoiy uyg‘onishga va yangicha tafakkurga chorlashni maqsad qilganlar [4]. Shu nuqtayi nazardan, Hoji Muin Shukrulloh Behbudiy ta’sirida teatr sohasiga kirib kelib, o‘zbek jadid teatrining shakllanishi va rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan ijodkor sifatida baholanadi. Derlihan Boraning qayd etishicha, Muinning “Eski maktab, yangi maktab”, “Mazluma xotin”, “Ko‘knori” va “To‘y” pyesalarida jadid adabiyotining asosiy g‘oyalari yaqqol namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchi ushbu



asarlarda savodsizlik, ko‘p xotinlilikning salbiy oqibatlarini, ayollarning jamiyatdagi ezilgan holati, xalq orasida keng tarqalgan yomon odatlar, giyohvandlik, diniy tanazzul hamda ortiqcha urf-odat xarajatlarini kabi ijtimoiy muammolar keskin tanqid qilinganini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, Muin bu mavzular orqali xalqning ijtimoiy ongini uyg‘otishga harakat qilgan [2]. Shuningdek, Derlihan Bora Muin dramaturgiyasining badiiy xususiyatlariga ham e’tibor qaratadi. Unga ko‘ra, dramaturg qahramonlarning nutqini ularning saviyasi va ijtimoiy mavqeiga mos tarzda yaratgan. Jadid va ma’rifatparvar obrazlarning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lsa, boshqa qahramonlarning tili ham o‘z xarakteriga mos shakllantirilgan. Asarlarda arabcha, forscha hamda ayrim ruscha so‘zlarning qo‘llanishi esa o‘sha davr Turkiston ijtimoiy-madaniy muhiti bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqotchining fikricha, Muin pyesalarida maqol va iboralardan foydalanilishi xalqona ruhni kuchaytirgan. Bundan tashqari, drama janrining asosiy belgisi bo‘lgan dialog usuli Muin asarlarida yetakchi o‘rin egallaydi. Derlihan Bora dramaturgning tasvir, ichki monolog, ichki dialog, montaj va hikoya qilish-ko‘rsatish kabi turli badiiy usullardan foydalanganini qayd etadi. Derlihan Bora yana shuni ta’kidlaydiki, “Ko‘knori” pyesasi uch birlik qoidasiga mos yozilgan bo‘lsa, “Eski maktab yangi maktab”, “Mazlum xotin” va “To‘y” pyesalarida esa faqat voqea birligi saqlanib, vaqt va makon birligidan chetga chiqilgan. Bu esa Muinning klassik drama an’analaridan ko‘ra, ijtimoiy mazmun va g‘oyaviy ta’sirni ustun qo‘yganini ko‘rsatadi. Derlihan Boraning ushbu tadqiqot ishida Hoji Muinning dramatik asarlari yetarli darajada tahlil qilingan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek jadid dramaturgiyasi Turkiston xalqlarining ijtimoiy-ma’naviy hayoti, milliy uyg‘onish va ma’rifatparvarlik g‘oyalarini aks ettirgan muhim adabiy hodisa hisoblanadi. Turk ilmiy muhitida olib borilgan tadqiqotlar Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon va Hoji Muin dramaturgiyasining badiiy hamda g‘oyaviy mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qilgan. Xususan, turk olimlarining ilmiy qarashlari jadid dramalarining nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan jadid dramaturgiyasi bugungi jadidshunoslik va turkiy xalqlar adabiy aloqalarini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Baydemir, Hüseyin (2011). “Özbekistan’da Geleneksel Tiyatronun Bir Şubesi: Maskarabazlık ve Kızıkçılık”, Turkish Studies International Periodical For the Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 6/1 Winter, s.763-777.
2. Bora Derlihan ÖZBEK CEDİT EDEBİYATINDA HACI MUİN VE TİYATRO ESERLERİ Erzurum_2019 11-288 betlar.



3. Özcan, Aynur (2015). “Cedit Dramasına Işık Tutan Bir Eser: Cedit Draması” Modern Türklük Araştırmaları Dergisi, 11(4), s. 452-464.
4. Hamza Öztürkchi. Çolpanin “Yarkinay” adlı piyesi (inceleme-metin). Diss. – Erzurum, 2019. 84.
5. Kocaoğlu, Timur (2004). “Türkistan’da Türkçe İlk Tiyatro Eseri: Mahmud Hoca Behbudî’nin Pederküş (Baba Katili) Piyesi”, Türklük Araştırmaları Dergisi, 15, s. 177-262.
6. Rizayev Shuhrat Jadid Dramasi, Toshkent, Sharq Nashriyoti, 1997. S. 53.

